



**2-TOM, 5-SON**

**KO'CHMA MA'NOLI SO'ZLAR USTIDA ISHLASH**

**Malika Jazilova Bekmirzayevna**  
[malikazazilova@gmail.com](mailto:malikazazilova@gmail.com)

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi  
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada ko'chma ma'noli so'zlar ustida ishlashda so'zlarning ma'nosiga e'tibor qilish, o'xshatishlar, iboralar ustida ishlash, o'quvchilarning nutqini o'stirish va badiiy matnlar mazmunini tahlil qilish orqali o'qish malakasini shakllantirish jarayonlari e'tiborga olingan.*

**Kalit so'zlar:** Matn, ko'chma ma'no, o'xshatish, ibora, badiiy matn

O'quvchilar lug'atini boyitish nutqning hissiy ta'sirini oshirishga, badiiy vositalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishga uzviy bog'liq. Nutq madaniyatini oshirish maqsadida asardagi badiiy vositalar utidagi maxsus ishlarni talab qiladi. Masalan, 7-sinfda S.Zunnunova ijodini o'rganishga doir mashg'ulotlarda matnni o'rganish ishlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. *Ko'chma ma'noli so'zlar ustida ishlash.* Bunda o'quvchilar oldiga "Misralarni o'qib, tagiga chizilgan so'zlar ma'nosiga e'tibor qilish; ularning qaysi ma'noda kelganini izohlash vazifasi qo'yiladi. Masalan:

Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'lasi bir mayin,

Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allalayin.

Dudog'ing guldan xushbo'y, yuzlaring undan xushro'y,

Kel, oppog'im, bag'rimga, jajji boshginangni qo'y.

Tovuq uxlar qo'noqda, shamol tingan butoqda,

O't-o'lanlar jimgina orom olar o'tloqda.

Yulduz charaqlayapti, oy ham yaraqlayapti,

Qizcha uxlayaptimi deb mendan so'roqlayapti.

Yer uzra qo'ndi oqshom oy shu'lasi bir mayin,

Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allalayin<sup>1</sup>.

O'quvchilarga yordam tariqasida shu so'zlarni o'z ma'nosida qo'llab, taqqoslash

<sup>1</sup> Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri /– Toshkent: Sharq, 2017. – 25-26-b.



**2-TOM, 5-SON**

usulidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Shu tariqa qaysi so‘z o‘z ma’nosи va ko‘chma ma’noda kelgани aniqlanadi.

2. *O‘xshatishlar ustida ishlash*. Bunday yondashuvda gaplar oldindan doskaga yozilib, so‘ngra ular bo‘yicha topshiriqlar beriladi. Masalan, 6-sinfda Zulfriyaning “Bog‘lar qiyg‘os gulda” she’ri<sup>2</sup>ni tahlil qilishda “She’rni o‘qing. Hayot nimaga o‘xshatilyapti?”, “Muallif daraxt hosili jumlasida nimani ko‘zda tutgan?”, “Yurtning gullab-yashnashi qanday tasviriy voatalarda ifodalangan?” savollarini berish mumkin.

3. *Iboralar ustida ishlash*. Bu jarayonda o‘quvchilarga quyidagicha topshiriqlar berish mumkin:

*Berilgan gaplarni o‘qing. Tagiga chizilgan iboralarning ma’nosiga ahamiyat qarating. Ularni bir so‘z bilan almashirib bo‘ladimi? Yoki ularning ma’nosini boshqa bir so‘z bilan ifodalash mumkinmi?* Masalan, 7-sinfda A.Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasini o‘tishda shunday yo‘l tutish mumkin. “Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi”, “Quruq qoshiq og‘iz yirtadi”, “Peshanam sho‘r bo‘lmasa”<sup>3</sup> kabi iboralar shular jumlasidandir.

So‘nggi paytlarda maktab amaliyotida matn ustidagi ishlarning izohli o‘qish, ijodiy o‘qish, adabiy o‘qish metodlari hamda muammoli o‘qitish metodlari, shuningdek, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanilmoqda. Masalan, Abdulla Qodiriyning 7-sinf “Adabiyot” o‘quv dasturida o‘rganilishi rejalashtirilgan “Mehrobdan chayon” romanidan berilgan “Chin o‘rtoq” parchasi<sup>4</sup>ni izohli o‘qish texnologiyasidan foydalanib o‘rganish maqsadga muvofiq. Chunki matnda lug‘aviy ma’nosи notanish so‘zlar ko‘plab uchraydi. Xususan, parchadagi “saboqdosh, mirzaboshi, havolanmas, asrandi, g‘arq, holda, mahdum, marsiya, xun, manhishin, dildor, notavon, g‘urbat” kabi so‘zlar izohlashni taqozo etadi.

Metodist olimlarning ko‘rsatishlaricha, badiiy asar matnini tahlil qilishning quyidagi usullari mavjud:

1. Badiiy asarni yozuvchiga ergashib yaxlit o‘rganish.
2. Obrazlar vositasida o‘rganish.
3. Mavzuli-muammoli o‘rganish.

<sup>2</sup> S.Ahmedov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev 6-sinf. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinf uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri /.. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – 32 b.

<sup>3</sup> Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri /– Toshkent: Sharq, 2017. – 313-, 315-b.

<sup>4</sup> Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri /– Toshkent: Sharq, 2017. – 259 b.



## **2-TOM, 5-SON**

Badiiy asar ustidagi ishlarda, asosan, matn asosidagi tahlil turiga tayaniladi. Matn mazmunini o‘zgartirmagan holda undagi ma’noni, jozibani o‘quvchilarga yetkazish muhim talab hisoblanadi.

Muammoli yo‘sinda uyushtiriladigan tahlilda o‘quvchilar e’tibori matnda aks etgan muammoli vaziyatlarga qaratiladi. Masalan, 6-sinfda P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” (“Bobur”) romanidan berilgan parchani o‘qitishda “*Boburning aytgan gaplari o‘rinlimi?*”, “*Hikoyadagiday holat sodir bo‘lishi mumkinmi?*” kabi savolar qo‘yish o‘rinli bo‘ladi. Bahs davomida o‘quvchilar ma’naviy olamida ham, aqliy fikrashi davomida ham muayyan o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Asar tahlilida qo‘llaniladigan tanlab o‘qish unga munosabat bildirish, munosabatlarning turli xilda bo‘lishi ham munozaralarga sabab bo‘lishi mumkin. Munozarali o‘rinlar muammoli vaziyatlarni paydo qiladi. Natijada navbatdagi jarayonda muammoni to‘g‘ri shakllantirish va unga munosaib yechimlarni shakllantirish vazifasi turadi.

Xulosa qilganda, 5–7-sinf o‘quvchilarining yoshi, psixologik xususiyatlari, asarning tur va janr xususiyatlari, mavzu ko‘lami badiiy asar ustida ishslashda e’tiborga olinishi muhim bo‘lgan pedagogik-psixologik omillar bo‘lib, o‘quvchi shaxsiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ularning bilim saviyasi oshishi, bilimlarning o‘zlashtirilishini ta’minlovchi metod va usullarni samarali qo‘llash mexanizmini talab etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. S.Ahmedov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev 6-sinf. Adabiyot: Umumiyo‘rtta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri /.. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – 102-b.
2. Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiyo‘rtta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri /. – Toshkent: Sharq, 2017. – 40-b.
3. Матжон С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 94-б.

